

ILK O'RTA ASRLAR MARKAZIY SUG'D VA G'ARBIY TURKLARNING ETNIK BOG'LIQLIKLARI

Azimova Farangis Shokirovna

Bugungi kun tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi, etnik tarixi bilan bog'liq jarayonlar, markaziyosiyolik etnoslarning o'zaro bog'liqlari kabi masalalar mohiyatini ochib berishdan iborat. Ta'kidlash lozimki, Arab xalifaligining Movarounnahrni egallagashi arafasida Markaziy Osiyoda yuz bergan jarayonlar tarixini o'rganishda manbalar anchayin kam va mavjudlari ham o'rganilayotgan mavzu yuzasidan to'laqonli ma'lumot berolmaydi. Shu o'rinda muhim bir masala xitoy yilnomalarida keltirilgan Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari sifatida tilga olingan chjaovular bo'lib, ularning bu hududlarga kelib joylashuvi va bu bilan bog'liq etno-siyosiy jarayonlar tadqiqotchilar oldidagi o'z yechimini kutayotgan muammo hisoblanadi. Ilk o'rta asrlar davrida sug'diy va turkiy etnoslarning o'zaro etnik bog'liqliklari masalasi bu boradagi muammoviy masalalardan bir ekanligini qayd etish lozim.

Turk xoqonligi davrida Sug'dda o'z tuzilishiga ko'ra konfederativ davlat faoliyat ko'rsatganligi, bir viloyat va bir tuman doirasidagi mulklar ichki boshqaruvda mustaqil, tashqi jihatdan esa markaziy hokimiyatga bo'ysunganligi aniqlandi. Sug'd vohasida xoqonlikning o'z hukmronligini o'rnatishi 560-yillarning o'rtalariga to'g'ri kelib, bu paytda voha Samarqand, Panch – Maymurg', Kabudon, Fay, Ishtixon, Kushoniya, Kesh va Naxshab kabi bir necha katta-kichik voha hukmdorliklari mulklardan iborat, o'z mahalliy sulolasiga ega, biroq Eftalitlar davlatiga bo'ysunuvchi siyosiy-ma'muriy tuzilmalar tomonidan boshqarilar edi. Sug'd xoqonlik tomonidan egallangach, ushbu tartib deyarli saqlanib qoldi, faqat ayrim hukmdorliklarda sulola almashinuvi yuz berib, xoqonlikka to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aloqador turkiy va turkiy-sug'diy boshqaruvchilar hokimiyat tepasiga chiqishadi¹.

Markaziy Sug'd – Samarqand hukmdorlari nomlari ham yozma manbalarda (xitoy, arab-fors) va ham numizmatik materiallarda saqlanib qolgan bo'lib, ularning faoliyatini yoritish uchun ma'lumotlar yetarli deb hisoblash mumkin. Xususan, ularda Tarxun (700-710), G'urak (710-738) kabi hukmdorlarning arab istilosiga qarshi kurashi manbalarda keng o'rin olgan.

Shu o'rinda mavzuga bevosita aloqador bir masalaga to'xtalib o'tish zarur. Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hamda unga tutash hududlardagi Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd, Buxoro, Toxariston va Xorazm kabi tarixiy-madaniy o'lkalarning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'ziga xos tarixiy manzaraga duch kelamiz. Xususan, mazkur viloyatlar alohida-alohida siyosiy-ma'muriy tuzilma – hukmdorliklar bo'lib, ular bir-biridan mustaqil siyosiy maqomga ega edilar. Ularning har biri o'z hukmdor sulolasi, merosiy hokimiyati, boshqaruv markazi (poytaxti), qonunchiligi, o'z qo'shini, muayyan hudud va chegarasi hamda tanga-pul tizimiga ega bo'lib, hukmron xonadonlarning o'ziga xos hokimiyat ramzlari mavjud edi².

B.G'oyibovning fikrlariga ko'ra, mazkur voha hukmdorliklarining ba'zilari o'z siyosiy tuzilishiga ko'ra konfederativ shaklda bo'lib, tarkibida bir necha mayda hukmdorliklarni

¹ Сулаймонова С. Суғд воҳасида Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқаруви: тарих фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Қарши: 2022. – Б. 23

² Ғойибов Б. Илк ўрта асрларда Суғд конфедерациясининг айрим хусусиятларига доир (нумизматик материаллар асосида) // Шарқшунослик. – Тошкент, – 2014. – № 2. – Б. 68-76.

birlashtirardi. Xususan, Toxariston va Sugʻdda (Sugʻdning Samarqand va Buxoro qismlarida alohida konfederasiya boʻlgan) shunday holat yaqqol koʻzga tashlanadi³. Ulardagi har bir viloyat yoki tuman alohida kichik hukmdorliklar boʻlib, deyarli barchasi yuqoridagiday maqomga molik edilar. Yaʼni, ulardan deyarli har biri oʻz sulolasi, hudud, chegara, tanga-pul tizimi, hokimiyat ramzlariga ega edi. Jumladan, xitoy rohibi Syuan Szan (629-645) maʼlumoticha, Toxariston 27 kichik hukmdorlik (Termiz, Chagʻoniyon, Xuttal, Kumed, Kobadiyon, Shugʻnon, Voxon, Balx, Qunduz, Guzgon va boshqalar)dan tashkil topgan boʻlib, ularning barchasi Turk xoqonligiga boʻysunardi. VII asr ikkinchi choragida Toxaristonda xoqonlik bilan aloqali, Ashina xonadonidan boʻlgan Yabgʻulik boshqaruvi taʼsis etilgach, mazkur hukmdorliklar ushbu Toxariston yabgʻulari sulolasini tan olgan holda, bir-birlaridan mustaqil ravishda boshqaruvda davom etadilar⁴.

Xitoy yilnomasida Kan (Samarqand)dagi xonadon ushbu toʻqqizta suloladan biri ekanligi taʼkidlanishi bilan birgalikda, ular orasida uning markaziy mavqeyga ega ekanligi yuqorida alohida urgʻu berilgan edi. Shuningdek, xitoycha “Bey shi” va “Suy shu” yilnomalarida An (Buxoro), Xe (Kushoniya) va Mi (Maymurgʻ) hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu sulolasidan ekanligi va ularning nasli Kan (Samarqand) xonadoniga borib taqalishi haqidagi dalillar ham ushbu maʼlumotlarga mos keladi⁵. Bu esa Chjaovu xonadoni dastlab Samarqandga kelib oʻz sulolasini tashkil qilgan va shu yerdan turib, mazkur hukmdorliklarning har birida alohida sulola barpo etilgan boʻlishi mumkinligi borasidagi fikrga asos beradi.

Garchi, “Tan shu” yilnomasidan farqli oʻlaroq, “Bey shi” va “Suy shu” yilnomalarida Shi (Choch) hukmdorlari Chjaovu xonadoniga taalluqli deb koʻrsatilmasa-da, baʼzi bir dalillarga asoslanib, vohani boshqargan sulola vakillarining mintaqadagi boshqa sulolalar bilan qarindosh boʻlganini taxmin qilish mumkin. Xususan, VI-VIII asrlarga taalluqli sugʻdiy yozuvli cʻcynk $\gamma\omega\beta\omega$ – “Choch hukmdori” unvonli, \mathfrak{H} shaklli tamgʻali Choch tangalari bilan qariyb xuddi shu davrlarda muomalada boʻlgan \mathfrak{C} shaklli tamgʻali Gʻarbiy Sugʻd – Buxoro hukmdorlari tangalari va \mathfrak{F} shaklli tamgʻali Markaziy Sugʻd – Samarqand ixshidlari tangalari orasida yaqinlik koʻzga tashlanadi. Ushbu tamgʻalarda shakliy jihatdan oʻxshashlik Choch, Buxoro va Samarqand boshqaruvchilarining qarindosh va Chjaovu xonadoniga mansub boʻlishi mumkinligi haqidagi taxminga imkon beradi. Balki, ushbu tamgʻalar markaziy xonadon boʻlmish Samarqand Chjaovular sulolasining tamgʻasidan oʻsib chiqqandir; $\mathfrak{H} \leftarrow \mathfrak{F} \rightarrow \mathfrak{C}$. Ushbu fikrlar soha mutaxassislari Gʻ.Boboyorov va B.Gʻoyibov tadqiqotlarida anchayin keng uchraydi⁶.

Xullas, ilk oʻrta asrlarga kelib jadallashgan etnik jarayonlarni Sugʻdni ham chetlab oʻtmadi. Bu yerda avvaldan faoliyat olib borgan turkiylar mintaqada oʻz taʼsirlarini oʻtkazib, turk-sugʻd simbiozini kuchayishiga sababchi boʻlishgan. Ayniqsa, boshqaruv tizimida turkiylarning oʻrni ahamiyatli boʻlib, Markaziy Sugʻd – Samarqand hokimlari Turk xoqonligi hukmronligi davrida

³ Гойи́бов Б. Согдийская конфедерация: формирование и особенности // Отан тарихы. Ғылыми журнал. – Алматы, 2015. – №3. (71). – С. 47-60.

⁴ Бобоёров Ф. Тоҳаристон ябғулари тарихига доир (VII-VIII асрлар) // Оʻzbekiston tarixi. – Тошкент, 2003. – №3. – Б. 3-12.

⁵ Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Наука, 1950. – Т. II. – С. 272, 274-275, 282, 286-287.

⁶ Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Тошкент: 2010. – Б. 27; Gayibov B. About Confederative Administration Ruling of Sogd // International Journal of Central Asian Studies. South Korea. Volume 20. 2016. – P. 167-179.

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

ОКТОBER 15

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

turkiylardan boʻlib bu holat yozma manbalar va numizmatik materiallar orqali oʻz tasdigʻini topgan.

Adabiyotlar roʻyxati:

Сулаймонова С. Суғд воҳасида Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқаруви: тарих фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Қарши: 2022. – Б. 23

Гойибов Б. Илк ўрта асрларда Суғд конфедерациясининг айрим хусусиятларига доир (нумизматик материаллар асосида) // Шарқшунослик. – Тошкент, – 2014. – № 2. – Б. 68-76.

Гойибов Б. Согдийская конфедерация: формирование и особенности // Отан тарихы. Ғылыми журнал. – Алматы, 2015. – №3. (71). – С. 47-60.

Бобоёров Ғ. Тоҳаристон ябғулари тарихига доир (VII-VIII асрлар) // Оʻzbekiston tarixi. – Тошкент, 2003. – №3. – Б. 3-12.

Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Наука, 1950. – Т. II. – С. 272, 274-275, 282, 286-287.

Бобоёров Ғ. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Тошкент: 2010. – Б. 27; Gayibov B. About Confederative Administration Ruling of Sogd // International Journal of Central Asian Studies. South Korea. Volume 20. 2016. – P. 167-179.